

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT


2020-yil 1-iyun holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

17 843



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

5 537



Oilaviy korxonona

249



Unitar korxonona

6 323



Xususiy korxonona

33




Aksiyadorlik jamiyati

411




Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



xususiy korxonona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'xis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'xis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-iyun holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni

(yanvar-may oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020-yil yanvar- may oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yilning yanvar-may oylarida 3 223 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 715 ta, xususiy korxonalar – 355 ta, oilaviy korxonalar – 966 ta va boshqalar – 187 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-iyun holatiga ko'ra 5 537 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 834 taga yoki 149,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 171 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 602 taga yoki 144,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 966 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 200 taga yoki 17,2 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra 554 tani tashkil etib, ulardan 532 tasi yoki 96,0 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 82 taga yoki 118,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-may oylarida viloyatimizda 37 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Samarqand viloyati	532	369	163
Samarqand sh.	234	146	88
Kattaqo'rg'on sh.	17	14	3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	24	21	3
Bulung'ur	24	10	14
Jomboy	38	32	6
Ishtixon	13	7	6
Kattaqo'rg'on	11	10	1
Qo'shrabot	15	6	9
Narpay	3	3	
Payariq	16	9	7
Pastdarg'om	27	21	6
Paxtachi	9	5	4
Samarqand	34	27	7
Nurobod	10	10	
Urgut	43	38	5
Tayloq	14	10	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 234 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 44,0 %), Urgut 43 ta (8,1 %), Jomboy 38 tani (7,1 %), Samarqand 34 ta (6,4 %), Pastdarg'om 27 ta (5,1 %) hamda Bulung'ur tumanlarida 24 ta (4,5 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahri (29,3 %), Urgut (8,6 %), Pastdarg'om (8,4 %), Samarqand (7,3 %), Payariq (5,5 %), Ishtixon (5,4 %), Kattaqo'rg'on (5,1 %), Tayloq (4,2 %), Oqdaryo va Bulung'ur (3,9 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,5 %), Narpay (3,4 %), Nurobod (2,9 %), Paxtachi (2,6 %) va Qo'shrabot (2,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020-yil yanvar-may oylarida, birlikda)

2020-yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Samarqand shahrida (20,7 %), Kattaqo'rg'on (8,6 %), Pastdarg'om (8,4 %), Samarqand (8,3 %), Urgut (7,0 %), Ishtixon (5,9 %), Payariq hamda Jomboy (4,8 %), Bulung'ur (4,7 %), Qo'shrabot (4,4 %), Kattaqo'rg'on shahri (4,1 %), Tayloq (4,0 %), Narpay (3,9 %), Nurobod (3,7 %) Oqdaryo (3,6 %) va Paxtachi (3,1 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2020-yilning yanvar-may oylarida, birlikda)





2020-yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahar (15,0 %), Samarqand (14,1 %), Kattaqo'rg'on (12,0 %), Pastdarg'om (10,1 %), Payariq (7,7 %), Jomboy (6,6 %), Urgut (5,9 %), Tayloq (5,6 %), Narpay (5,2 %), Bulung'ur (4,5 %), Ishtixon (4,2 %), Oqdaryo (3,5 %), Kattaqo'rg'on shahar (2,6 %), Qo'shrobot (1,1 %), Paxtachi (1,0 %) va Nurobod (0,9 %) tumanlari ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar-may oylarida, birlikda)

O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main header includes the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. The navigation bar contains links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJIRATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The left sidebar lists 'RASMIY STATISTIKA' categories such as 'E'lon qilish taqvim', 'Metama'lumotlar', 'Makroko'rsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', 'Investitsiyalar', 'Qurilish', and 'Tashqi iqtisodiy faoliyat'. The right sidebar lists 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' including 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-relizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'. The central content area shows a form for 'Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri' with a dropdown menu open, listing options like 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The form includes fields for 'STIR kodini kiriting' and 'Rasmdagi kodni kiriting', and a 'Qidiruv' button.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi
Tel.:66 230-45-42**